6/2023, noyabr-dekabr (№ 00068)

QURILISH SANOATI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich
Andijon mashinasozlik instituti, doktorant
nigorsarvarbek@gmail.com https://orcid.org/0000-0002-4217-4549
DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss6/a10

Annotatsiya
Maqolada qurilish sanoati korxonalari raqobatbardoshligini klasterlashtirish orqali oshirish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan foydalanishga bag‘ishlangan nazariy qarashlar o‘rganilgan. Shuningdek, qurilish sanoati korxonasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining amal qilishi samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlangan. Bu ta’sir etuvchi omillar nazariy mohiyati o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: qurilish sanoati, qurilish mahsulotlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, raqobatbardoshlik, klasterlashtirish, qurilish sanoatini rivojlantirish.

ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ

Мирзаев Сарварбек Авазбекович
Андижанский машиностроительный институт, докторант

Аннотация
В статье рассматриваются теоретические взгляды на повышение конкурентоспособности предприятий строительной отрасли за счет кластеризации и использования ее организационно-экономического механизма. Также определены факторы, влияющие на эффективность организационно-экономического механизма предприятия строительной отрасли. Изучена теоретическая сущность этих влияющих факторов.
Ключевые слова: строительная отрасль, строительная продукция, организационно-экономический механизм, конкурентоспособность, кластеризация, развитие строительной отрасли.

FACTORS FOR INCREASING COMPETITIVENESS OF CONSTRUCTION INDUSTRY ENTERPRISES

Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich
Andina Machine-Building Institute, doctoral student

Abstract
The article examines the theoretical views on increasing the competitiveness of construction industry enterprises through clustering and using its organizational and economic mechanism. Also, the factors affecting the effectiveness of the organizational-economic mechanism of the

construction industry enterprise have been identified. The theoretical essence of these influencing factors has been studied.

Key words: construction industry, construction products, organizational-economic mechanism, competitiveness, clustering, development of construction industry.

Kirish

Qurilish sanoatini korxonalarini rivojlantirish zarurligi doirasida ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va tartibga solish masalasi dolzarbligi hamda ushbu masalani o'rganish borasida qator tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, ta'sir etuvchi omillar belgi va xususiyatlari bo'yicha chegaralanmagan va aniq tasnif holatida ishlab chiqilmagan. Aytib o'tish joizki, qurilish sanoati milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalardan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlarga ega. Qurilish sanoatida amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va yaratilayotgan xizmatlarga qo'shilayotgan yangi sifatlar iste'molchilarning yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida shakllanayotgan o'ziga xos ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilgan. Shuning uchun qurilish sanoatining rivojlanishi, raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi har bir omilni alohida va muayyan yo'nalishlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda qurilish sanoatini rivojlantirishda tarmoqning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan yetkazib berish, saqlash va tashish bilan shug'ullanuvchi logistik tuzilmalar faoliyatini takomillashtiruvchi institusional muhitni rivojlantirish omili ham alohida e'tiborga olinishi lozim. Yuqoridagi omillar qurilish sanoati korxonalarining rivojlanishi afzal bo'ladi va muhimdir, chunki korxonalarni iqtisodiy faoliyati mamalakatimiz meyoriy va huquqiy hujjatlar asosida tartibga keltiriladi. Ko'rsatib o'tilgan omil guruhlarining birortasiga tegishli bo'lmagan va qurilish xizmatlarini yaratish va yetkazib berish jarayoniga ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega omillar ham mavjud. Shuning uchun o'zgarishlar amalga oshirilayotgan, ishlab chiqish va noaniqliklar yetkazib berish davrida, infratuzilma va rivojlanmagan texnologiyalar bozoriga boshqa omillarni bog'liq bo'lmaganligi.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham qurilish mahsulotlari bozorini rivojlantirish bo'yicha «Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish [1, 3 b.]» bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali ijrosini ta'minlashda qurilishda energiya tejamkor materiallarini keng joriy etish orqali uy-joy qurilish vaqti va tannarxini pasaytirish, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini optimallashtirish, har bir hududda kamida bittadan qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish asosida qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashkiliy iqtisodiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Mahalliy olimlarimizdan I.U.Ibragimov o'z tadqiqot ishida «tashkiliy-iqtisodiy boshqarish mexanizmi - o'zaro bir-biri bilan bog'langan elementlar majmui bo'lib, bu elementlar ijtimoiy, tashkiliy, iqtisodiy, ba'zida texnologik jihatdan quyi darajadagi kichik tizimchalarning o'zaro bog'lanishi» [2, 16 b.], deb ta'rif bergan.

A.A.Poluxin esa qurilish sanoatida ijtimoiy boshqaruv va iqtisodiy mexanizm tabiati va xususiyati bo'yicha sinonim so'z birikmalari bo'lib, bunda "iqtisodiy mexanizm narx, soliq, ishlab chiqarish resurslarini jalb etish va ulardan foydalanish kabi tarkibiy qismlardan iborat" [1, 26 c.] deb ta'kidlagan.

A.A.Kerashev, R.A.Baybekovalar qurilish sanoati korxonalarining "tashkiliy-iqtisodiy mexanizm yaxlit bir tushuncha bo'lib, ular moliyaviy hamda iqtisodiy usullar, shakllar,

vositalar orqali tashkiliy-texnik jixatdan korxona ijtimoiy, moliyaviy-iqtisodiy natijasiga” [4, 39 c.] ta’sir ko‘rsatadi deb o‘z fikrini bergan.

A.A.Kulman qurilish sanoatida raqobatbardoshligini klasterlashtirish asosida rivojlantirish bo‘yicha fikrini izohlagan. Shuningdek u “tashkiliy-iqtisodiy mexanizm - iqtisodiy xodisalarning aniqlangan majmui yoki ketma-ketligini bildiradi” [5, 53 c.] birinchilardan bo‘lib qurilish sanoati sohasida o‘z fikrini ilgari surgan.

J.I. Isayev qurilish sanoati sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan. U o‘zining tadqiqotida “tashkiliy mexanizm ichki va tashki muhit omillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish usullari majmui bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonidagi muayyan vazifalarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy mexanizm bu turli xil iqtisodiy jarayonlar o‘rtasida yuzaga keladigan va barkaror ijobiy tendensiyalarga olib keladigan o‘zaro bog‘liq omillar tizimidir” [3, 17 b.] deb ta’rif bergan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada tizimli va mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy mexanizmi borasida iqtisodchi olimlar fikri o‘rganildi va ularning ilmiy qarashlari tizimli va mantiqiy tahlili olib borildi va 1-jadval orqali qurilish sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni tasnifiy belgilari va turlari hamda uning umumiy tasnifi taqdim etilgan. Nazariy ma’lumotlar umumiylikdan husussiylikka qarab tizimlashtirilgan.

Qurilish sanoati klasterlari faoliyat olib borishini baholash uchun muvaffaqiyatli klasterni rivojlantirish ko‘rsatkichlaridan foydalanish, uning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari sifatida talqin etish mumkin. Bu xulosa alohida klaster ishtirokchilarining va umuman butun klasterning yuqori darajadagi raqobatbardoshligi ishlab chiqarishni klaster tashkil etishning asosiy natijaviy ko‘rsatkichi ekanligiga asoslanadi.

Tahlil va natijalar

Qurilish sanoati klasterlarini muvaffaqiyatli ishlashi sohani raqobatbardoshligini oshirish zarur. Shuningdek, ushbu faoliyatni baholash yondashuvi, jumladan, baholash ko‘rsatkichlarini tashkil etish yo‘nalishlarini aniqlashimiz mumkin. Qurilish korxonasini fazoviy aglomerasiyalari raqobatbardoshligini baholash bo‘yicha taklif etilayotgan yondashuvni o‘ziga xos xususiyati shundaki, baholash ko‘rsatkichlari klaster tizimini samarali boshqarish - yagona integrasiyalashgan yondashuv asosida yaratilishi lozim. Raqobatli klaster tizimini shakllantirish hamda bu tizimni boshqarishni qisqa va uzoq muddatda samarali amalga oshirish zarur.

Qurilish sanoati korxonalari o‘rtasida bir fikrga to‘g‘ri kelish talab etilinadi tizimida Klaster tizimlari raqobatbardoshligini baholash maqsadida, alohida-alohida funksional, mustahkamlik, faollik va tashkiliy tizimlar yuqorida aytib o‘tilgan darajasini belgilaydi. Har biri to‘rtta ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan integratsiya raqobatbardoshligi indeksidan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, klasterlarning raqobatbardoshligini boshqarish turli vaqt oralig‘ida har tomonlama tahlil qilish uchun xususiy raqobatbardoshlik indekslari qabul qilinadi [3, 21 b.].

1-jadval

Qurilish sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni umumiy tasnifi[1]

Tasnif belgisi	Omil turi	Omil tavsifi
Qo'llash darajasiga qarab	Xarajatlarga ta'sir etuvchi tashqi obyektiv omillar	Qurilish sanoatiga yetkazib berilayotgan resurslarni yetkazib beruvchi tizimini shakllanish jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar, logistik texnologiya ta'siri, iqtisodiyotdagi global o'zgarishlarga olib keladi;
	Xarajatlarga ta'sir etuvchi tashqi subyektiv omillar	qurilish bozoridagi hamda qurilish kompaniyalariga xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar o'rtasidagi raqobat kurashining xususiyatlari
	Logistik zanjirga bog'liq ichki omillar	Ilmiy-texnik, texnologik, malakali mehnat, moliyaviy va axborot resurslari, zanjir bo'g'inlarining o'zaro aloqasi, logistik tizim xodimlarining motivasiyasi va boshqalar.
Ta'sir ko'rsatish muddatiga qarab	Uzoq muddatda ta'sir etuvchi omillar	Globallashuv siyosati samaradorligi, iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli sikl tendensiyasi, aholi turmush darajasi va korxonani foydalilik darajasi
	Qisqa muddatda ta'sir etuvchi omillar	Qurilish materialga bozor talabini alohida o'zgarishi, qurilish materialini yetkazib berish, qisqa muddatli ustunlikka ega bo'lish
Qurilish korxonalari rivojlanish darajasiga qarab	Asosiy omillar	Yangi qurilish materialini ishlab chiqarish, yetkazib berish, taqsimlash, qurilish materiallari bozorida sotish, foyda olish, soliq to'lash, qo'shimcha qiymat zanjirin yaratish;
	Sezilarli omillar	
	O'zgarmas omillar	
Shakllanish manbasiga qarab	Infratuzilma omillar	Infratuzilma tizimlarini shakllantiruvchi omillar
	Tashkiliy omillari	Boshqaruvchi qobiliyati hamda kompetentligi, ularni qurilish xizmatlarini yaratish jarayoniga qurilish sanoati korxonalari materialni yetkazish jarayoni uchun samarali boshqaruv tizimini yarata olishi
	Iqtisodiy omillar	Logistik zanjir tarkibidagi autsorsing korxonalarini o'z asosiy faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlari va salohiyati
Qurilish sanoatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish xarakteriga qarab	Rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillar	Salbiy institusional muhit, ta'minotdagi uzilishlar, yangi qurilish texnologiyalari to'g'risidagi axborotlarga ega emaslik yoki axborotning o'z vaqtida olinmasligi, logistik zanjir boshqaruv tizimining markazlashmaganligi
	Rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi omillar	Davlat xususiy sherikchilik asosida qurilish sanoatini rivojlantirish, qulay investitsion muhit, qurilish sohasiga malakali kadrlar tayyorlash

Qurilish sanoati klasteri tizim sifatida kichik muddatda yirik iqtisodiy ko'rsatkichlarni belgilash mumkin. Uzoq muddatli rivojlanish hech qanday harakat qilmaydi. U klaster tizimi mavjud ishlab chiqarish imkoniyatidan samarali rivojlanish ta'minlaydi.

[1] Muallif ishlanmasi.



1-rasm. Qurilish sanoati klasteri tizimi raqobatbardoshligini baholashni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi[2].

Bu holda uzoq muddatda klaster tizimining xususiy raqobatbardoshlik indeksi qisqa muddatda raqobatbardoshlik indeksidan kam bo‘lishi mumkin.

Taklif etilayotgan takomillashtirilga yondashuvning biri bu – mazmuni jixatdan parametrning qaratilgan izohlashga, qilinayotgan har biri taxmin doirasida ko‘rsatkichlar qiymatlarga ajratilgan iqtisodiy variantlarini taxmin turlini qilishdir. Birinchidan, asosiy modelda faqat to‘rtta ko‘rsatkich ko‘rib chiqiladi, bu dastlab taxmin qilinayotgan parametrlarning asossiz ko‘pligini toraytiruvchi shartdir (1-rasmga qarang).

Qurilish sanoati klasteri tuzilishini ikki xil mexanizmi mavjud. Bularni geometrik o‘rtacha miqdor qiymati asosida baholash nazarda tutiladi raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarning. Ikkinchidan, har bir ko‘rsatkichni birgalikda metodologik tashkil etish doirasida keyingi talqin bilan bir necha iqtisodiy qiymatlarni qabul qilish mumkin. Ushbu modelni turli iqtisodiy tizimlarni darajadagi uchun bu usuldan foydalanishni ta’minlash uchun variantlar ichidan qaratilgan o‘zgaruvchan qiladi.

Raqobatbardoshlikning taxminiy ko‘rsatkichlari tabiatini klasterlarning parametrlarini ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Funksiyalar parametri qisqa muddatda klaster tizimining ishlashini ko‘rsatadi. Bu, birinchi navbatda, mijozlar ehtiyojlarini qondirishni anglatadi. Qurilish sanoati klasterining asosiy vazifasi mahsulot ishlab chiqarish va ushbu mahsulotlar bozorini ta’minlashdir.

[2] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval

Qurilish sanoati klasteri raqobatbardoshligi ko'rsatkichlar tizimi[3]

Indikator nomi	Baholash ko'rsatkichining uslubiy mazmuni	Ko'rsatkich mazmunini izohlovchi iqtisodiy qadriyatlar
Funksionallik ko'rsatkichi	Qisqa muddatli ishlash, ya'ni mijozlar ehtiyojini qondirish	-sotilgan mahsulotlar hajmi; - korxonalar aylanmasi; - korxonalarning xo'jalik faoliyati turi bo'yicha aylanmasi
Tizimlilik ko'rsatkichi	Qisqa muddatli samaradorlik, ya'ni resurs ta'minotining iqtisodiy samaradorligi	- xar bir xodim xisobiga qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish; - xodim ulishi yalpi hududiy mahsulotni ko'paytirish
Faollik ko'rsatkichi	Yangi innovatsion faoliyat, risklari ta'sirini yumshatish yangixavf-xatarga moslashish va x.q	-innovasi asosida mahsulot hajmi; - ilmiy o'rganishlarni moliyalashtirish miqdori; -nvestisiyalarni asosiy vositalarga
Amaliy ko'rsatkich	O'rtadagi hamkorlik va integrasiyali hamkorlik, namoyon bo'lgan jamiyatlarni ta'minlash. Integrasiyaning o'zaro bog'liqlik darajasi	- ish bilan band bo'lganlar soni -Klaster kompaniyalari; - xo'jalik faoliyati turi bo'yicha klasterdagi korxona va tashkilotlar soni

Klasterning integrallashgan raqobatbardoshlik indeksi tizimli ravishda to'rtta ko'rsatkichni ko'rsatadi. Qurilish sanoati klasteri sanoat, ilmiy, moliya institutlari va institutlarining o'zaro aloqalarini yaratishni yondashuvni amalga oshirish tegishli klaster tuzilmasi asosida talab qilanadi. Hududiy iqtisodiyot tarkibida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun klaster uchta asosiy o'zaro bog'liq elementga ega bo'lishi lozim:

-rahbarlarni xom ashyo, butlovchi qismlar, xizmatlar, logistika va boshqalar bilan ta'minlovchi mahalliy ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar tarmog'i;

- o'z tovar yoki xizmatlarini hududdan tashqariga eksport qiluvchi asosiy yetakchi firmalar;

- ishbilarmonlik muhiti – infratuzilma, yuqori sifatli inson resurslari, kapital bozorlari, soliqqa tortish tizimi, ma'muriy vositalar, transport infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarining mavjudligi.

Qurilish sanoati klasteri samarali ishlashi uchun, mintaqa tashqarisida o'z tovar yoki xizmatlarni eksport qiluvchi asosiy yetakchi firmalardan tashqari xom ashyo bilan ta'minlovchi mintaqalararo ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar tarmog'iga ega bo'lishi kerak. Qurilish sanoati klasterining sabab-oqibat bog'lanishlarini hisobga oluvchi umumiy modeli 2-rasmda ko'rsatilgan.

[3] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. Qurilish sanoati klasteri modeli[4].

Qurilish sanoati klasterining samarali tuzilmasini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Elementlar bir-birining imkoniyatlariga tayanadigan va boshqaruv organlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan mexanizmni yaratadigan klasterni ishlab chiqish infratuzilmasi elementlari uchun muvofiqlashtirish markazini tashkil etish. Bundan tashqari, muvofiqlashtiruvchi organ hududlar klasterining infratuzilma elementlari o'rtasidagi nomuvofiqlik muammosini oldini oladi.

2. Qurilish sanoati klasteri bazasi hududida sanoat parkini yaratish.

Klaster tashabbuslarini muvofiqlashtirish va axborot-tahliliy qo'llab-quvvatlash vazifasining bir qismi sifatida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

iqtisodiy rivojlanish agentliklari (korporasiyalar) yaratish;

klaster rezident korxonalar uchun konsalting va xizmatlar tizimini yaratish;

klaster tashabbuslarini amalga oshirishni monitoring qilish va baholash tizimini yaratish.

[4] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qurilish sanoati klasteri ehtiyojlari uchun malakali kadrlarni jalb etish, tayyorlash va qayta tayyorlashning samarali tizimini shakllantirish. Bu sohada qurilish sanoati klasterlarining raqobat salohiyatini mustahkamlash uchun mahalliy inson resurslari sifatini yaxshilash va boshqa mamlakatlardan malakali mutaxassislarni jalb etish asosiy vazifadir. Klasterning raqobatbardoshligini uzoq muddatli ta’minlash faqat malakali kadrlarga tayanadigan uzluksiz innovatsion jarayon orqali amalga oshirilishi mumkin. Ko‘pincha, klasterning muvaffaqiyati uning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarga asoslanadi. Bu har doim yozma va elektron axborot manbalari orqali rasmiy ravishda uzatilishi mumkin emas. Shu munosabat bilan klaster tabiiy resurslarining xususiyatlari haqida aniq bilimlarni saqlovchi mahalliy ilmiy maktablar va mahalliy mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Qurilish sanoati korxonalari misolida raqobatbardoshlik omillarini ekspert baholashini o‘tkazish uchun ekspertlar guruhiga baholash shakllari beriladi (1-jadval). “Baholash apparatini quyidagi parametrlar bo‘yicha quriladi: 0 - ma’lum bir toifadagi raqobatbardoshlik omili uchun raqobatbardoshlikning nol darajasi; 25 - ma’lum bir omilning raqobatbardoshligining past darajasi; 50 - o‘rtacha daraja; 75 - raqobatbardoshlikning yuqori darajasi, 100 - juda yuqori / mutlaq raqobatbardoshlik darajasi = 1 ma’lum bir namunaga, gipotetik standartga yoki raqobatchining shunga o‘xshash ko‘rsatkichining qiymatiga nisbatan”.

Har bir omillar guruhi uchun raqobatbardoshlikning kompozit indeksini hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$\bar{B} = \sum_{i=1}^{n} \frac{B_i}{n}$$

Bu yerda:

Bi – i-ekspert tomonidan prognoz qilingan qiymatning kattaligi;

n – guruhdagi ekspertlar soni.

Yuqoridagi jadval 5 ta ekspertning prognozlari asosida tuzilgan bo‘lib, prognozlar o‘rtasidagi farqlarni arifmetik usul bilan qiyoslaganda ham ranglar o‘rtasidagi farqlarni katta emasligini va ekspertlar deyarli bir xil prognoz berganliklarini kuzatish mumkin. Ekspert bahosi, agar ekspertlar fikri bo‘yicha ma’lum kelishuvga erishilgan bo‘lsa, ishonchli deb e’tirof etiladi.

Xulosa va takliflar. Ilmiy maqola natijalari asosida quyidagi umumiy xulosaga keldik:

-qurilish sanoati korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amal qilinishidan ko‘zlangan pirovard maqsad korxona, jumladan qurilish sanoati tarmog‘i rivojlanishini barqarorligiga erishish hisoblanadi. Bunda qurilish sanoati korxonalarini barqaror rivojlanishini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tizimli ravishda o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash zarur;

-qurilish sanoati korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini samarali amal qilishda bir qancha tamoyillarga asoslanishi lozimligi ta’kidlangan;

-qurilish mahsulotini ishlab chiqarish resurs bazasini yaratish bilan o‘zaro bog‘liq holda qurilish sanoati korxonasini barqaror rivojlantirishni ustuvor elementlarini tizimli tahlil qilish zarur;

-keyingi yillarda mamlakatimiz qurilish sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish orqali ularning xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish bilan birgalikda aholini arzon va sifatli qurilish mahsulotlari bilan ta’minlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur;

-qurilish vqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solish holatiga baho berish orqali uni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash;

-qurilish sanoati korxonalarini barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy mexanizmga baho berish zarur va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони, 28.01.2022 й. https://lex.uz/docs/5841063

2. Ibragimov I.U. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent - 2019, 33 b.

3. Isayev J.M. Sanoat tarmog‘ini rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (qurilish materiallari sanoati misolida): diss. avtor. (PhD), Farg‘ona-2023, - 35 b.

4. Керашев А.А., Байбекова Р.А Социально-экономические механизмы промышленных предприятий

5. Кульман А. А. Экономические механизмы//. М.: Прогресс; Универс., 1993. 92 с.

6. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. - 2012 - №5 с. 23-29